

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIIa INSTITUTI

HISOB VA AUDIT FAKULTETI

“AUDIT” KAFEDRASI

TURSUNOV QAXRAMON TO'LQINJON O'G'LI

**«AUDITORLIK FAOLIIaTINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI»**

KURS ISHI

TOSHKENT - 2016

REJA

KIRISH

- 1. Auditning paydo bo'lishi va auditorlik faoliyatini shakllantirish**
- 2. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning rivojlanish bosqichlari**
- 3. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning maqsadi, iqtisodiyotni rivojlantirishda uning tutgan o'rni va ahamiyati**

- 3. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning rivojlanish bosqichlari**

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

Kirish.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirishda moliyaviy hisobot auditi ularning faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritishda asosiy omillardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei xo'jalik yuyurtuvchi subektlarning moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan utkazishi hamda moliyaviy faoliyatni mustahkamlanishi orqali sezilarli darajada muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan "Korporativ boshqaruv tizimidagi printsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi. Eng avvalo, korporativ yoki aktsiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda ham mulkchilikning mazkur shakli tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida ayni paytda respublikamizda 1 ming 100 dan ortiq aktsiyadorlik jamiyati tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy ustav

kapitali 11 trillion 700 milliard so'mdan ortiq bo'lib, so'nggi o'n yilda 5,3 barobar o'sdi¹.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xo'jalik sube'ktlar moliyaviy o'z mavqeini mustahkamlashi uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, ya'ni korxona, tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlarning haqqoniy emasligi, turli faoliyatdan olingan pul mablag'larni noto'g'ri sarflanishi, xalqaro valyuta kredit munosabatlarining buxgalteriya hisobida aniq aks ettirilmaganligi dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutlar chiqishiga, jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi.

Ma'lumki, so'ngi yillarda auditorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga muvofiq, 2000 yil 26 mayda yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish, auditorlik xulosalari soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olinishini ta'minlash maqsadida 2000 yil 22 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi

¹ Karimov I.A. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir" "Xalq so'zi" 19.01.2016

Vazirlar Mahkamasining 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida» gi qarori va boshqa qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, Auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun attestatsiya o'tkazish va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish tartiblari belgilandi. 20 dan ortiq auditorlik faoliyatining milliy standartlari ishlab chiqildi. Shuningdek, 2000 yil 7 avgustda O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan auditorlar va auditorlik tashkilotlarini ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi mustaqil jamoat tashkiloti - O'zbekiston auditorlar palatasi tashkil etdi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi.

1. Auditning paydo bo'lishi va auditorlik faoliyatini shakllantirish

Ma'lumki, har qanday voqea, hodisa, buyum qaysi zamonda va makonda paydo bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Auditga oid manbalarda ta'kidlanishicha, uni quyidagi shart-sharoitlar keltirib chiqargan:

➤ axborot etkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aktsiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma'muriyat tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar berilishi;

➤ noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;

➤ iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;

➤ axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning etishmasligi va h. k.

Mana shu muammolarni hal qilishga yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshladi. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir. Auditorlar etarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajaradilar. Bundan tashqari, ular korxona ma'muriyatiga bo'ysunmaydigan va uning tazyiqlaridan holidirlar.

Ayrim manbalarga ko'ra buxgalter-auditor kasbi XVII asrning o'rtalarida Evropaning aktsiyadorlik kompaniyalarida aktsiyadorlar, kreditorlar va soliq xizmati xodimlari o'rtasidagi munozarali masalalarni hal qilib berish zarurati tufayli shakllana boshlagan. O'sha paytlarda mustaqil faoliyat ko'rsatib, korxonaning ishlab chiqarish moliya faoliyati to'g'risida aniq xulosa beradigan

mutaxassislariga ehtiyoj kuchaygan.

Natijada, 1862 yili Angliyada, 1867 yili Frantsiyada, 1937 yili esa AQShda majburiy audit to'g'risidagi qonun qabul qilingan. Hozirgi paytda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'zining tashkiliy huquqiy infratuzilmalariga ega bo'lgan audit institutlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Auditorlik kasbi turli xil mamlakatlarda turlicha nomlanib kelingan. Masalan, Amerikada jamoatchi-buxgalter, Frantsiyada buxgalter ekspert yoki schyotlar bo'yicha komissar, Germaniyada xo'jalik nazoratchisi, yoki kitoblar (Das Buch) nazoratchisi, qator anglo-saksoniya mamlakatlarida kompaniyaning moliyaviy faoliyatini nazorat qiladigan taftishchi kabilar.

Auditorlik faoliyatining rivojlanishiga 1929-1933 yillarda jahon iqtisodiy tanazzuli katta turtki bo'ldi. Bu davrda aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa korxonalarning ko'pchiligi inqirozga yuz tutdilar. Natijada hisobotlarni, xususan, balans, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini tasdiqlash tartibini qat'iy belgilash, ularning to'g'riligi va haqqoniyligini mustaqil auditorlar tomonidan tekshirish ehtiyoji yuzaga kelgan .

Audit XIX asr o'rtalarida Shotlandiyada ham vujudga kela boshlagan.

Ingliz temiryo'lhilari, sug'urta va boshqa investorlar Shimoliy Amerikaga yo'l olishganida ular bilan birga yirik ingliz sarmoyador (kreditor)larining manfaatlarini himoya qiladigan mustaqil taftishchi-auditorlar ham birga borganlar.

1844 yilda Angliyada aktsiyadorlik kompaniyalarining buxgalteriya schyotlarini, aktsiyadorlarga beriladigan hisobotlarni yiliga kamida bir marta mustaqil buxgalterlar tekshiruvidan majburiy o'tkazilishini talab qiladigan qonunlar chiqarilgan.

Dastlab auditorlik vazifalari aniq belgilanmagan bo'lib, barcha investorlar, aktsiyadorlar, kreditorlar auditorlarni o'zlarining himoyachisi sifatida qabul qilganlar.

Auditorlar haqida ularni aktsiyadorlar oldidagi mas'ul shaxslar deb qarash 1929 yilda «Kompaniyalar to'g'risidagi qonun» chiqarilishi bilan o'zgardi. Ushbu

qonunga muvofiq barcha kompaniyalar o'zlarining moliyaviy hisobotlarida foyda va zararlarni majburiy ravishda ko'rsatishlari belgilab qo'yildi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, markazlashgan davlatchilikning barpo bo'lishi hamda rivojlanishi natijasida mamlakatni boshqarish uchun hisob, nazorat va moliya ishlariga zaruriyat kuchaygan. Ularning ildizlari insoniyatning uzoq tarixiga borib taqaladi. Masalan, auditorlik professor P. I. Kamishanov ma'lumotlariga ko'ra taxminan eramizdan oldingi 200 yillarda kasb sifatida shakllana boshlagan. Bu paytlarda kvestorlar ya'ni Rim Imperiyasi davrida moliya va sudlov ishlarini olib boruvchi mansabdor shaxslar joylardagi hukumat buxgalterlari ustidan nazorat qilib turganlar. Kvestorlarning hisobotlari Rimga yuborilib, imtihon qiluvchilar tomonidan eshitilgan. «Auditor» lotinchadan «eshituvchi» degan tushuncha ham shundan kelib chiqqan.

Demak, «Audit» tushunchasi lotincha bo'lib, «auditing» - aynan tarjimasi «u eshitayapti», «eshituvchi» degan ma'nolarni bildiradi.

Keyingi 25 yil mobaynida auditorlik faoliyati 3 xil rivojlanish bosqichidan o'tdi:

1. **Tasdiqlovchi audit** – bunda asosan hisob registrlari va hujjatlar tekshirildi.
2. **Maqsadli sistemali audit** – bu bosqichda muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratildi.
3. **Tavakkalchilikka asoslangan audit** - sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi.

Maqsadli sistemali audit shakllanishi bilan auditorlar ichki nazorat orqali ekspertiza o'tkaza boshladilar. Buning oqiba-tida shu narsa isbotlandiki, agar ichki nazorat tizimi samarali tashkil qilingan bo'lsa, xato va kamchiliklarni aniqlash uchun jiddiy tekshirishlar o'tkazishga hojat qolmaydi.

Tavakkalchilikka asoslangan audit yoppasiga yoki tanlov yo'li bilan o'tkaziladigan tekshirish bo'lib, u korxona faoliyati sharoitidan kelib chiqadi va asosan tor doiradagi ob'ektlarni tekshirish bilan yakunlanadi.

Davlat organlarining auditorlik xizmatlariga munosabati turlicha. Masalan,

AQSh va Buyuk Britaniyada auditorlik tashkilotlari mustaqil bo'lib, ular auditorlarni o'zlari tayyorlaydilar, tegishli malakaviy unvonlarni beradilar va keyinchalik ham ularning o'z vazifalarini vijdonan, halol bajarishlarini nazorat qilib turadilar. Boshqa Evropa mamlakatlarida auditorlik faoliyati hukumat organlari tomonidan tashkil qilinadi.

Bozorning kengayishi bilan auditorlik firmalari ko'rsatadigan xizmatlar turlari va hajmlari ham ortib boradi. Ko'plab firmalar odatdagi buxgalteriya hisobiga oid maslahatlar va xizmatlardan tashqari soliqqa tortish, boshqaruv faoliyati va axborotlarni olish texnologiyasi, marketing, moddiy ishlab chiqarish zahiralarini baholash, iqtisodiy rejalashtirish va istiqbolni belgilash, bank va sug'urta ishlari bo'yicha ham xizmat ko'rsata boshladilar.

Bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazoratning quyidagi tashkiliy tizimidan foydalaniladi:

1. Davlat moliyaviy nazoratining oliy organi ***schyotlar palatasi yoki davlat bosh auditorlik apparati*** bo'lib, u bevosita parlament yoki prezidentga bo'ysunadi. Uning asosiy vazifasi davlat byudjetining xarajatlar qismini umum nazorat qilishdir.

2. ***Soliq boshqarmasi***. Hukumatga yoki moliya vaziriga bo'ysunadi, davlat byudjeti daromadlar qismining to'ldirilishini nazorat qiladi.

3. ***Vazirliklardagi nazorat taftish bo'linmalari*** byudjet tomonidan mablag' bilan ta'minlanib, davlat moliyaviy nazoratining oliy organi yoki tegishli vazirlikka bo'ysunadi. Asosiy vazifasi byudjet mablag'larining to'g'ri sarflanishini nazorat qiladi.

4. ***Mustaqil auditorlik moliyaviy nazorat*** balans ma'lumotlarining to'g'riligini, amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligini shartnoma asosida nazorat qiladi. Nodavlat sektoridagi korxona va tashkilotlarga ham shartnoma asosida hisob va moliya masalalari bo'yicha maslahat (konsultatsiya) beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda mustaqil auditorlik tashqi moliyaviy nazoratning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi va u keng profilli taftishchilar tomonidan amalga

oshiriladi.

Turli mamlakatlarda auditni tashkil qilish bilan bog'liq qoidalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda bir-biriga o'xshashliklar mavjud:

- korxonalar moliyaviy hisobotlarini majburiy audit nazoratidan o'tkazish;
- auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun ma'lum malakaga ega bo'lishi bilan bog'liq talablar.
- auditorlikka faqat shu mamlakat fuqarolarini tayinlash.

Bu mamlakatlarning har birida auditorlik xizmatlarining soni juda ko'p. Ularning faoliyati shu darajada keng tarqalganligi xalqaro auditorlik tashkilotlarining shakllanishiga olib keldi. Xususan, **Diplomli jamoatchi buxgalterlar xalqaro assotsiatsiyasi** 147 ta mamlakatda faoliyat ko'rsatadigan 4 mingdan oshiq auditorlik firmalarini birlashtiradi. Xorijiy mamlakatlarning nazorat amaliyotidagi ijobiy tajribalarni o'rganish va yoyish maqsadida 1953 yili BMT qoshida nodavlat tashkiloti - **Oliy Nazorat Organlarining Xalqaro Tashkiloti** (INTOSAI) tuzilgan. Bu tashkilotni tuzishga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- jahon iqtisodiyotida baynalminallashish tendentsiyalarining kuzatilishi;
- biznes va savdo-sotiqning rivojlanishi;
- ko'p millatli korporativ operatsiyalarning kengayishi;
- pul mablag'larini samarali nazorat qilishga intilish;
- davlat nazoratining kuchaytirilishi va chet el inves-titsiyalarining boshqarilishi.

Buxgalter-auditorlarning professional tashkilotlari jahonning ko'p mamlakatlarida tuzilgan. Jumladan Buyuk Britaniyada Angliya va UELS mamlakatlarida mustaqil buxgalterlar instituti tashkil qilingan bo'lsa, AQShda diplomli va diplomsiz jamoatchi buxgalterlarning **buxgalter-auditorlar jamiyati**, Germaniyada **Auditorlar palatasi** va **Auditorlar instituti** faoliyat ko'rsatmoqda.

Barcha auditorlik firmalari, xizmatlari o'z faoliyatlarida «**Xalqaro audit normalari va qo'shimcha ishlar Nizomi**» dan foydalanadilar. Xalqaro audit normalari normativi 29 ishdan iborat bo'lib, unga yana 4 ta qo'shimcha ishlar normativlari ham kiritilgan.

Tashqi audit bilan birga ko'pchilik korxonalarda ichki audit yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular ishlab chiqarish xarajatlarining darajasi, rentabellik, tejamkorlik, maqbul rejimga rioya qilish va ko'rsatiladigan xizmatlarning yuqori sifatliyligi ustidan nazorat qiladilar.

Firmalarning, shu jumladan auditorlik firmalarining ham bozorda mustahkam o'rin topishida ularning mahsulot (ish, xizmat)larining sifati muhim ahamiyatga ega. Ichki audit transnatsional firmalar ishlab chiqarish-moliya faoliyatining muhim omilidir. Masalan, «Istmen Kodak» oliy sifatli sport mollari sotish va xizmat ko'rsatish bo'yicha jahonda etakchi o'rin egallaydi. Unda ichki auditning tashkil qilinganiga 60 yildan oshgan. Uning uchun mas'uliyat Rochester (Nyu-York shtati) dagi **umumiy audit bo'limiga** yuklangan.

Har bir korxona va har bir tadbirkor ular xo'jalik yuritadigan sohada amalga oshiriladigan muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish zarurati bilan to'qnashadilar. Ammo audit nima ekanligini hali ko'pchilik tushunib etgan emas.

Audit mamlakatimizdagi xo'jalik faoliyatini nazorat va iqtisodiy tahlil qilishning nisbatan yangi yo'nalishidir. Agar Jarb mamlakatlarida audit 150 yildan buyon ma'lum bo'lsa, O'zbekistonda esa, mustaqil faoliyat sohasi sifatida xo'jalik yuritishda davlat monopoliyasidan voz kechish va bozor iqtisodiga o'tish natijasida shakllana boshladi. Shuning uchun auditorlik faoliyati rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish zarurdir. Ta'kidlash joizki, oldin ham mamlakatimizdagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xo'jalik faoliyatini nazorat va taftish qilish amalga oshirilgan. Ammo, nazorat va taftish bilan audit tushunchalari birlariga yaqin bo'lsa ham, ularni bitta narsa deb tushunish to'g'ri emas.

Auditorlik bizning tushunchamizdagi xo'jalik faoliyatining tahlili, hujjatli to'liq taftish, balans schyotlarini tekshirish yoki aytaylik, sud-buxgalterlik ekspertizasi emasligiga qaramasdan, auditorlar o'z xizmat vazifalarini amalga oshirish chog'ida yuqorida sanab utilgan ishlar tartibi va hisob hamda nazorat-tahliliy amaliyotning boshqa sohala-ridan foydalanadilar.

Audit tushunchasi nazorat va taftish tushunchalariga qaraganda kengroq,

chunki u nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar to'g'riligini tekshirishni, balki xarajatlarni maqbullashti-rish va qonuniy asosda foydani ko'paytirish maqsadida xo'jalik faoliyatini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Auditni biznesni o'ziga xos ekspertiza qilish deb ta'riflash mumkin. Bunda buxgalteriya hisobi va ichki xo'jalik nazorati shartnoma asosida amalga oshirilib, moliya-xo'jalik muomalalarining qonunchilikka muvofiqligi tekshiriladi (ya'ni hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniyligi nazorat qilinadi). Shuningdek, noo'rin xarajatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida ekspert konsultatsiyasi o'tkaziladi.

Biznes bo'yicha ekspert vazifalarini bajarish uchun auditor keng bilim, mahorat va tajribaga ega bo'lishi lozim.

Bizning mustaqil mamlakatimizda auditning dunyoga kelishi va auditorlik firmalarining barpo etilishi asosan, aktsiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar va tijorat banklarining tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, ularning hisobotlari auditor xulosasiz rasmiy maqomga ega bo'la olmaydi.

2. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning rivojlanish bosqichlari.

So'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida audit sohasi moliyaviy bozorning muhim elementlaridan biri sifatida jiddiy ravishda isloh qilinmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu hodisaga tadbirkorlik tizimlarining faoliyat yuritishi va rivojlanishining ob'ektiv sharoitlarining o'zgarishi, xususan kelgusida global dolzarb vazifalarni echish doirasida integratsiya jarayonlarining faollashuvi, auditorlik faoliyatining dunyoning iqtisodiyoti ko'proq modernizatsiyalashgan mamlakatlari hamda hududiy va xalqaro iqtisodiy birlashmalarni shakllantirishga intilishi, so'nggi yillarda biznes faoliyatini rivojlantirishning intellektual omillarining kuchayishi, zamonaviy informatsion texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston jahon xo'jalik tizimining teng huquqli a'zosi bo'lib borar ekan, mamlakatimiz audit tizimining rivojlanishiga xalqaro tajriba yanada kattaroq ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining juda qisqa davri ichida audit sohasi mustaqil professional tadbirkorlik faoliyati va milliy iqtisodiyot moliyaviy infratuzilmasining ajralmas elementi sifatida o'z o'rnini topdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan so'ng jahon iqtisodiy hamjamiyatining integratsiyalashuviga, xalqaro tashkilotlarning faoliyatida ishtirok etishga intilishi, mamlakatdan milliy audit tizimining jahon tajribasida qabul qilingan uslubiy tamoyillar bilan yaxlitligini, davlat biznes tuzilmalari moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining xorijiy mamlakatlarda qo'llaniladigan o'xshash ko'rsatkichlar bilan mosligini ta'minlashni talab qiladi.

Axborot resurlarning ishonchliligini ta'minlash va ulardagi mavjud bo'lgan risklarini bo'zib ko'rsatilishi – bu manfaatli axborot-ma'lumotlarini yuqori darajada aniqlikda olishda foydalanuvchilarga doimiy duch keladigan asosiy muammolardir. Aynan shu holat, jamiyatning tegishli tayyorgarlikka, malakaga, tajribaga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar xizmatlariga ehtiyoj shakllanishiga olib keldi. Respublikada bunday muammolarni echish maqsadida, hozrgi kunda bozor iqtisodiyotining ajralmas elementi sifatida bo'lgan mustaqil auditorlik tashkilotlari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi hukmatning yuqori organlari tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-normativ qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi va u quyidagicha ko'rinishga ega (1.5-rasmga qarang). Bunga muvofiq auditorlik faoliyatini tartibga solishda bosh qomusimiz Respublika Konstitutsiyasi va undan so'ng "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun hamda Oliy majlis palatalarining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlari muhim ahamiyatga kasb etadi.

Respublikamizda auditorlik faoliyatida tubdan yangi bo'lgan huquqiy – me'yoriy qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu yaratilgan baza mamlakatimizda auditorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim bosqichlarini bosib o'tishga asos bo'ldi.

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent R.D. Do'smurovning ta'kidlashicha, respublikamizda auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solishning rivojlanishi quyidagi uch bosqichga ega(1.1-jadval)²:

Mamlakatimizda auditorlik faoliyatini huquqiy-me'yoriy tartibga solish sohasidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda auditorlik faoliyatini yuritishdagi tartiblarning keskin o'zgarishi va rivojlanishiga turtki bo'lgan me'yoriy hujjatlari qabul qilinganligiga qarab tadqiqot natijasida biz auditorlik faoliyati rivojlanishining quyidagi uch bosqichini belgilashga muvaffaq bo'ldik .


1-jadval

Respublikamizda auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solishning rivojlanish bosqichlari

² Do'smurov R.D. O'zbekistonda auditorlik faoliyatining shakllanishi va uning uslubiyotini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.Toshkent – 2008.-51b.

Bosqichlar	Davr	Qisqacha tavsifi
I-bosqich	1990-1993 yillar	90-yillarning boshidan 1993 yilgacha, ya'ni 1992 yil 9 dekabrda "Auditorlik faoliyati to'g'risida" qonun qabul qilinguncha
II-bosqich	1993-2000 yillar	Auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) ishlab chiqila boshlandi. 2000 yil 26 mayda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri va 2000 yil 20 sentyabrda Vazirlar mahkamasining 365-sonli "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi qarori va boshqalar;
Sh-bosqich	2001 yildan hozirgacha	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 aprelda PQ-615- sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori; 2007 yil 17 sentyabrda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida qonun qabul qilindi; Yangi auditorlik milliy standartlari va ularga tenglashtirilgan me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda;

Quyida har bir bosqichni batafsil tavsiflashga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishdagi **dastlabki bosqichlaridan birinchisi**, uni kelajakda rivojlanishi va istiqbolini yaratish maqsadida 1992 yil 9 dekabrda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Auditorlik faoliyatini rivojlanishining birinchi bosqichi 1992 yil "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi. Mustaqil audit yordamida davlat va xususiy mulk egalarining mulkiy manfaatdorligini himoya qilish Qonunning asosiy maqsadi etib belgilangan edi.



1.6-rasm. Respublikada auditorlik faoliyatini me'yoriy-huquqiy tartibga solishning rivojlanish

Shuni ta'kidlash muhimki, ushbu Qonun xalqaro tamoyillarga yaqinroq talablariga o'z vaqtida to'liq javob bergan. Qonunda dastlab quyidagi tushunchalar aniqlashtirildi: audit, auditor, auditorlik tashkiloti, auditorlik xulosasi, auditorlik faoliyatini litsenziyalash. Shu bilan birgalikda, ushbu qonunda auditorlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, Auditorlar Palatasi faoliyatining huquqiy asoslari, moliyaviy hisobotlarni auditorlik xulosasi bilan birgalikda chop etish talablari, auditorlik tekshiruvlarini o'tqazishdagi cheklovlar va boshqa masalalar o'z aksini topgan edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qonunga muvofiq va mustaqil nazoratning maqsadga muvofiqligini kuchaytirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga boshqaruv faoliyati, buxgalteriya hisobi va moliya sohasida malakali yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moliyaviy nazoratni mustahkamlash va xo'jalik faoliyatiga moliyaviy nazoratning auditorlik shakllarini joriy etish to'g'risida" 1993 yil 3 maydagi 198-sonli Qarori qabul qilindi. Ta'kidlab o'tish joizki, ushbu qarorda har yili majburiy auditorlik tekshiruvdan o'tuvchi xo'jalik yurituvchi sube'ktlar turlari belgilab qo'yilgan edi. Shuningdek ushbu qaror Auditor (auditorlik firmasi) to'g'risida vaqtinchalik nizom va Auditorlar Palatasi to'g'risida vaqtinchalik nizom, auditorlik firmalari va auditorlarning jamoat tashkiloti faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun aniq ravshan asos sifatida xizmat qiladi. Shular qatorida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1993 yil 17 iyunda 293-sonli "Auditorlar va auditorlik firmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi, bu esa auditorlik firmalarining faoliyatini tashkil etishga bo'lgan davlatning oshib borayotgan qiziqishidan dalolat berar edi. Shu bilan birgalikda, Vazirlar Mahkamasining "Faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnomalar (litsenziyalar) berish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 1994 yil 19 apreldagi 215-sonli Qaroriga asosan, Auditorlik faoliyatini litsenziyalovchi davlat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi belgilangan edi.

Mamlakatimizda auditorlik faoliyati rivojlanishining dastlabki bosqichida yana bir muhim qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilariga maslahat-auditorlik va axborot xizmatlari ko'rsatish agentligini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi 1996 yil 25 apreldagi 161-sonli Qarorining qabul qilinishi bo'ldi, bu esa o'z navbatida qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari moliya-xo'jalik faoliyatida auditning rivojlanishi uchun muhim turtki bo'ldi.

Auditorlik faoliyatini yagona tizim sifatida to'liq rivojlanishida navbatdagi qadamlardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 24 iyuldagi PF-1500 sonli "Respublikada bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining

qabul qilinishi hisoblandi, shunga muvofiq Respublika Markaziy bankiga quyidagi vakolatlar berilgan edi:

- O'zbekiston Respublikasi banklari tizimiga kiruvchi banklarda auditorlik tekshiruvini amalga oshirilishini nazorat etish;
- auditorlarga Respublika tijorat banklarida auditorlik tekshiruvlarida qatnashish huquqini beruvchi malaka sertifikatini berish;
- auditorlik tashkilotlariga Respublika tijorat banklarida auditorlik tekshiruvlarini o'tqazish huquqini beruvchi maxsus sertifikat berish va boshqalar.

“Auditorlik faoliyati to'g'risidagi” qonunning birinchi chop etilishida auditorlik tekshiruvlarini o'tqazishda muhim ahamiyatga ega, auditorlik qoidalari yoki standartlarini kiritish va qayta ishlash masalalri ko'zda tutilmagan edi. Auditorlar o'z faoliyatlarini xalqaro va milliy tajribalarni umumlashtirish yordamida, ishlab chiqilgan aniq kasbiy qoidalarga muvofiq amalga oshirishlari lozim edi. Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda qo'llanilishi lozim bo'lgan asosiy usul va tamoyillar mazmunini ochib beruvchi bunday qoidalar yoki standartlar bo'lib auditorlik faoliyatini milliy standartlari hisoblanadi.

1999 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 iyun 1999 yildagi 296-sonli “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis XIV sessiyasidagi ma'ruzasi asosiy qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” qaroriga muvofiq, auditorlik faoliyati milliy standartlarini ishlab chiqish boshlandi va bu ishga Respublika Moliya Vazirligi mas'ul etib tayinlangan edi.

“Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonunning birinchi nashri o'zining kutilgan natijasini berdi – ya'ni Respublikada auditorlik faoliyati o'z o'rnini topganligini ishonch bilan aytish mumkin edi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishning **ikkinchi bosqichi** 26 may 2000 yilda “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonunning yangi tahrirda chop etilishi bo'ldi.

Oldin qabul qilingan qonunning tubdan qayta ishlab chiqilishi, milliy auditorlik faoliyati tizimining respublikadagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning umumiy jarayonidan orqada qolishini tugatish, milliy auditning unga xos bo'lgan funktsiyalarini bosqichma-bosqich, samarali, ratsional va muvofaqqiyatli bajarish uchun qulayroq sharoitlar yaratilishi zaruriyati bilan belgilanadi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunning yangi tahririda auditor va auditorlik tashkiloti, auditorlik xulosasi va auditorlik hisoboti o'rtasidagi farqlar aniq tartiblashtirildi, auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbus tarzidagi tekshiruvlarga ajratildi, auditorlik faoliyatida auditorlik

tekshiruvlaridan tashqari aniq belgilangan professional xizmatlar tartibi, huquqlarning kengayishi, auditorlik tekshiruvlaridan o'tuvchi xo'jalik sube'ktlari va auditorlik tashkilotlari majburiyatlari va javobgarliklari, auditorlik tashkilotlari litsenziyasini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish masalalarini yoritilishi, shuningdek auditorlik malaka sertifikatini tugatish va bekor qilish kabi masalalar o'z echimini topdi.

Yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ko'zda tutilgan Auditorlik faoliyatining tartibga solish mexanizmlarini amalga oshirish, shuningdek auditorlik tekshiruvlarining rolini va huquqiy maqomini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22 sentyabr 2000 yilda 365-sonli "Auditorlik faoliyatni takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning axamiyatini oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi, bunga muvofiq auditorlik faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish maxsus organi vakolati Respublika Moliya Vazirligiga birlashtirilgan edi, banklarda auditorlik faoliyati qismi uchun esa – Markaziy Bank maxsus organ etib tayinlangan edi. Shuningdek yuqorida ta'kidlab o'tilgan qaror bilan birgalikda soliq va boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan auditorlik xulosalarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma, majburiy auditorlik tekshiruvlari o'tqazilishidan bosh tortgan xo'jalik yurituvchi sube'ktlardan jarimalarni undirish to'g'risidagi Yo'riqnoma va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to'g'risidagi Yo'riqnomalar ham tasdiqlangan edi.

Moliya Vazirligi orqali davlat tomonidan tartibga solinishi qo'yidagilarni nazarda tutadi:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, auditorlik faoliyatini tartibga solish, shu jumladan milliy auditorlik faoliyati standartlarini ham ishlab chiqish;
- auditorlik tashkilotlarida litsenziya shartlari va talablariga rioya qilinishini nazorat qilish, litsenziya shartnomalarini amalga oshirish.
- auditorlik malaka sertifikatini olishga da'vogarlar uchun malakaviy talablarni o'rnatish;
- auditorlik malaka sertifikatini olish uchun auditorlarni o'qitish dasturi va malaka imtixonini topshirish tartibi bo'yicha respublika jamoat birlashmasining kelishuvini tasdiqlash;
- auditorlik malaka sertifikatini olish huquqi auditorlar kvalifikatsion imtihoni respublika jamoat birlashmasi qatnashchilari tomonidan o'tqazilishi;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda litsenziyani to'xtatib turish va bekor qilish;
- bekor qilingan va to'xtatib turilgan auditorlik malaka sertifikati faoliyatini qayta berish;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda litsenziyasi bo'lgan, auditorlik tashkiloti hisobida va malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlarni auditorlar reestriga kiritish.

Banklarda auditorlik tekshiruvlarini o'tqazish masalalari Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda amalga oshiriladi;

Auditorlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishning ushbu bosqichidagi muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27 sentyabr 2006 yildagi 475-sonli "Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqoridagi qarorda quyidagilar ko'zda tutilgan, ya'ni 2007 yil 1 yanvardan boshlab aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda ichki audit tashkil etilishi lozim bo'lib, u kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi va o'z navbatida unga hisobot beruvchi hisoblanadi va shuningdek ustav kapitalida davlat aksiyalari paketi(ulushi) 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalarda tashqi auditni o'tkazish uchun auditorlik tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan aniqlanadigan ro'yxatga muvofiq tanlov asosida tanlab olinadi.

3. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning maqsadi, iqtisodiyotni rivojlantirishda uning tutgan o'rni va ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti talablaridagi infratuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yilganligi xorijiy mamlakatlar sarmoyalarining kirib kelishiga zamin bo'lib ko'plab yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga va ish joylari tashkil etilishiga asos bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu kapitalni O'zbekiston iqtisodiyotiga joylashtirmoqchi bo'layotgan xorijiy investorlar oldida ishonchli sherik tanlash va ularning moliyaviy holatini aniq baholash kabi jihatlari muammoli bo'lib turibdi.

Ma'lumki, har qanday voqea, hodisa, buyum qaysi zamonda va makonda paydo bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Auditga oid manbalarda³ ta'kidlanishicha, uni quyidagi shart-sharoitlar keltirib chiqargan:

- axborot etkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma'muriyat tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar berilishi;


³ Fayziev Sh., Avloqulov A. Audit fanidan ma'ruza matnlari. Toshkent moliya instituti, 2008. – B. 3-4.

- noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;
- iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;
- axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning etishmasligi kabi masalalardir.

Ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshlagan. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishni taqozo etgan. Auditorlar etarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajarganlar. Bundan tashqari, ular korxona ma'muriyatiga bo'ysunmaydigan va uning tazyiqlaridan holi faoliyat yuritganlar.

Rivojlangan mamlakatlarda mustaqil auditorlik tashqi moliyaviy nazoratning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi va u keng profilni taftishchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarda auditni tashkil qilish bilan bog'liq qoidalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda bir-biriga o'xshashliklar mavjud(1-chizma)



1-chizma. Audit o'tkazishga qo'yilgan talablar

Har bir korxona va har bir tadbirkor ular xo'jalik yuritadigan sohada amalga oshiriladigan muomalalarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish zarurati bilan to'qnashadilar. Ammo "audit" tushunchasi hali ko'pgina iqtisodiy sub'ektlar uchun to'liq va aniq tasavvurga ega bo'lmagan sohalardan bir bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiy islohotlarning liberallashtirishi natijasida turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish va ularga professional auditorlik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sharoitida, iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish shakllarini hamda biznes ko'rsatkichlarini baholash usullari tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kabs etmoqda. Xususan, moliyaviy nazoratning muhim shakllaridan biri hisoblangan mustaqil va muqobil auditorlik nazorati mexanizmini samarali shakllantirish hamda uni bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish zarurati yanada kuchaymoqda.


Iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish natijasida korxonalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samarali tashkil etish uchun auditorlik tekshiruvdan o'tkazish, hamda o'zaro hisob-kitobni yaxshilash maqsadida ularga maslahat, tavsiyalar, moliya, soliqqa tortish, moliyaviy boshqarish va huquq sohasidag hamda boshqa turlardagi malakali yordam ko'rsatadigan auditorlarga ehtiyoj yanada kuchaymoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlari ish sifatini yanada oshirish hamda auditor malaka sertifikatiga ega auditorlarni audit tekshiruvlarini xolisona, sifatli va haqqoniy o'tkazilishini ta'minlashni tartibga solish maqsadida bir qancha ilmiy va amaliy choralar ishlab chiqilmoqda.

Respublikamizda auditorlarning qonuniy huquq va majburiyatlarini himoya qiladigan, ular malakasini oshirish bo'yicha doimo tadbirlarni amalga oshiradigan nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil etilib, ular bugungi kunda o'z faoliyatini olib bormoqda. Bunday tashkilotlar qatoriga O'zbekiston auditorlar palatasi, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi va O'zbekiston biznes fanlari o'qituvchilari assotsiatsiyasi kiradi.

Har qanday tushuncha, ayniqsa ilmiy atama o'zining mohiyatini ifodalovchi ta'rifga ega bo'lishi lozim.

Auditorlik faoliyatining ta'rifi o'zining tarixiy taraqqiyot yo'lida turli manbalarda turlicha bayon qilingan. Masalan, professor M. M. To'laxo'jaevaning «O'zbekiston Respublikasida Moliyaviy nazorat tizimi» nomli kitobida auditorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan:



2-chizma. Respublikamizda auditorlik faoliyatining asosiy maqsadi

Auditorlik faoliyati – bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir.


Auditorlik faoliyati va auditor tushunchalariga ta'rif 2000 yil 26 mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida quyidagicha keltirilgan:

Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi⁴.

O'zbekistonda davlat hoqimiyati va boshqaruvi organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish qonun bilan ta'qiqlangan.

Auditor – auditorlik tekshiruvlarini malakali bilim va professional qobiliyat asosida o'tqazuvchi auditorlik malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Auditorlik faoliyatining maqsad va vazifalari tavsifidan kelib chiqib, uni quyidagicha tasniflash mumkin(3-chizma).



⁴ «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II – chaqiriq, 2 – sessiyasida qabul qilingan. “Xalq so'zi” gazetasi, 2000 yil 22 sentyabr.

3-chizma. Auditorlik faoliyatining tavsifi

Shuningdek, O'zbekistondagi auditorlik faoliyati oldida turgan muhim vazifalardan biri – xorijlik hamkorlar tan oladigan auditorlik xulosasi berish qobiliyatiga ega, sertarmoq va professional darajadagi umummilliy auditorlik kompaniyalari tashkil etish hisoblanadi.

Muvofiq ravishda, yuqorida keltirib o'tilgan auditorlik faoliyatini rivojlantirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik tashkilotlari faoliyatini boshqarishning samarali usullarini tadbiq etish, ularning auditorlik tekshiruvi natijalari uchun javobgarligini va auditorlik tekshiruvlarining ob'ektivligini oshirish, shu asosda tadbirkorlik tizimlari tomonidan ularga bo'lgan ishonchni oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615- sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini kelgusida isloh qilish yo'lida yana bir kuchli turtki bo'lib xizmat qildi.

Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, Respublikamizda auditorlik faoliyatini tashkil etishning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amaldagi qonunchilikka asosan atroflicha o'rganish va tahlil etish, muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan samarali taklif va tavsiyalar berish bo'lsa, iqtisodiyotda tutgan o'rni mulkchilik shaklidan qat'iy nazar birinchidan, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ishonchli, xolisona va mustaqil auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishini ta'minlash, ikkinchidan, amaldagi qonunchilikning takomillashtirilishi auditorlik xizmatining sifatli o'tkazilishini rag'batlantirishdan iboratdir.


4. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning rivojlanish bosqichlari

So'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida audit sohasi moliyaviy bozorning muhim elementlaridan biri sifatida jiddiy ravishda isloh qilinmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu hodisaga tadbirkorlik tizimlarining faoliyat yuritishi va rivojlanishining ob'ektiv sharoitlarining o'zgarishi, xususan kelgusida global dolzarb vazifalarni echish doirasida integratsiya jarayonlarining faollashuvi, auditorlik faoliyatining dunyoning iqtisodiyoti ko'proq modernizatsiyalashgan mamlakatlari hamda hududiy va xalqaro iqtisodiy birlashmalarni shakllantirishga intilishi, so'nggi yillarda biznes faoliyatini rivojlantirishning intellektual omillarining kuchayishi, zamonaviy informatsion texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston jahon xo'jalik tizimining teng huquqli a'zosi bo'lib borar ekan, mamlakatimiz audit tizimining rivojlanishiga xalqaro tajriba yanada kattaroq ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining juda qisqa davri ichida audit sohasi mustaqil professional tadbirkorlik faoliyati va milliy iqtisodiyot moliyaviy infratuzilmasining ajralmas elementi sifatida o'z o'rnini topdi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi hukmatning yuqori organlari tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-normativ qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi va u quyidagicha ko'rinishga ega (4-chizmaga qarang). Bunga muvofiq auditorlik faoliyatini tartibga solishda bosh qomusimiz Respublika Konstitutsiyasi va undan so'ng "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun hamda Oliy majlis palatalarining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlari muhim ahamiyatga kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining juda qisqa davri ichida audit sohasi mustaqil professional tadbirkorlik faoliyati va milliy iqtisodiyot moliyaviy infratuzilmasining ajralmas elementi sifatida o'z o'rnini topdi.



4-chizma. Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi

Ta'kidlash joizki, mustaqillikka dastlabki yillari Respublikamizda auditorlik faoliyatida tubdan yangi bo'lgan huquqiy – meyoriy qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu yaratilgan baza mamlakatimizda auditorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim bosqichlarini bosib o'tishga asos bo'ldi.

Quyida har bir bosqichni batafsil tavsiflashga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishdagi dastlabki bosqichlaridan birinchisi, uni kelajakda rivojlanishi va istqbolini yaratish maqsadida 1992 yil 9 dekabrda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Auditorlik faoliyatini rivojlanishining birinchi bosqichi 1992 yil "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi. Mustaqil audit yordamida davlat va xususiy mulk egalarining mulkiy manfaatdorligini himoya qilish Qonunning asosiy maqsadi etib belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishning ikkinchi bosqichi 26 may 2000 yilda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda chop etilishi bo'ldi.

Oldin qabul qilingan qonunning tubdan qayta ishlab chiqilishi, milliy auditorlik faoliyati tizimining respublikadagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning umumiy jarayonidan orqada qolishini tugatish, milliy auditning unga xos bo'lgan funktsiyalarini bosqichma-bosqich, samarali, ratsional va muvofaqiyatli bajarish uchun qulayroq sharoitlar yaratilishi zaruriyati bilan belgilanadi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunning yangi tahrirda auditor va auditorlik tashkiloti, auditorlik xulosasi va auditorlik hisoboti o'rtasidagi farqlar aniq tartiblashtirildi, auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbus tarzidagi tekshiruvlarga ajratildi, auditorlik faoliyatida auditorlik tekshiruvlaridan tashqari aniq belgilangan professional xizmatlar tartibi, huquqlarning kengayishi, auditorlik tekshiruvlaridan o'tuvchi xo'jalik sube'ktlari va auditorlik tashkilotlari majburiyatlari va javobgarliklari, auditorlik tashkilotlari litsenziyasini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish masalalarini yoritilishi, shuningdek auditorlik malaka sertifikatini tugatish va bekor qilish kabi masalalar o'z echimini topdi.

Yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ko'zda tutilgan Auditorlik faoliyatining tartibga solish mexanizmlarini amalga oshirish, shuningdek auditorlik tekshiruvlarining rolini va huquqiy maqomini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22 sentyabr 2000 yilda 365-sonli "Auditorlik faoliyatni takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning axamiyatini oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi, bunga muvofiq auditorlik faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish maxsus organi vakolati Respublika Moliya Vazirligiga birlashtirilgan edi, banklarda auditorlik faoliyati qismi uchun esa – Markaziy Bank maxsus organ etib tayinlangan edi. Shuningdek yuqorida ta'kidlab o'tilgan qaror bilan birgalikda soliq va boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan auditorlik xulosalarini

ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma, majburiy auditorlik tekshiruvlari o'tqazilishidan bosh tortgan xo'jalik yurituvchi sube'ktlardan jarimalarni undirish to'g'risidagi Yo'riqnoma va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to'g'risidagi Yo'riqnomalar ham tasdiqlangan edi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda amalga oshiriladi;

Respublikada auditorlik faoliyatini tartibga solishning muhim elementlaridan biri auditorlik faoliyatining milliy standartlari hisoblanadi.

Respublikada AFMSlarini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Birinchi AFMS 1999 yil qabul qilingan edi va unda auditorlik tekshiruvlariga asosiy talablar, rejalashtirish, hujjatlashtirish, auditorlik tanlovlari va boshqa masalalarga oydinlik kiritildi. Hozirgi kunda Respublikamizda 21 ta auditorlik faoliyati milliy standartlari qabul qilingan.

Mamlakatimiz audit tizimining kelgusida professional tadbirkorlik tizimi sifatida rivojlanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik tizimiga bosqichma bosqich integratsiyalashuviga va chet el kapitalini keng qamrovli jalb qilinishiga, shuningdek turli mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq.

Muvofiq ravishda, yuqorida keltirib o'tilgan auditorlik faoliyati sohasidagi muammolarni samarali bartaraf etish, mustaqil audit tizimini rivojlantirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik tashkilotlari faoliyatini boshqarishning samarali usullarini tadbiq etish, ularning auditorlik tekshiruvi natijalari uchun javobgarligini va auditorlik tekshiruvlarining ob'ektivligini oshirish, shu asosda tadbirkorlik tizimlari tomonidan ularga bo'lgan ishonchni oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615 sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular

ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qarorning qabul qilinishi mamlakatimizda auditorlik faoliyatini kelajakda rivojlantirish va takomillashtirish hamda uni isloh etish yo'lida uchinchi bosqichining boshlanishi bo'lib xizmat qildi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini kelgusida isloh qilish yo'lida yana bir kuchli turtki bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida aytib o'tilgan qarorning muhim omillaridan biri bo'lib auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomning tasdiqlanishi hisoblanadi. Ushbu Nizomda auditorlik tashkilotlarining asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, javobgarliklari, auditorlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etish, auditorlik tashkilotlariga qo'yilgan litsenziya talablari va shartlari, shuningdek, auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilishining hisobi, hisoboti va nazorati aniq tartibga solingan.

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi Qonunga va yuqorida aytib o'tilgan Nizomga muvofiq auditorlik tashkilotli bu - auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga va o'z nomi bitilgan muhrga, mustaqil balansga, banklarda o'z hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 aprelda PQ-615-sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilinguncha, auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida 51 foizi bir yoki bir necha auditorlarga tegishli bo'lishi belgilab qo'yilgan edi (chet el auditorlik tashkilotining - filial yoki sho'ba korxonasini tashkil etilish holatlari bundan mustasno). Bunda: ustav kapitalining ushbu ulushi aynan shu auditorlik tashkilotining auditoriga (auditorlariga) yoki ushbu tashkilotda ishlamaydigan auditorga tegishliligi muhim emas edi, muhimi ta'sischida auditorlik malaka sertifikatini bo'lishi hisobga olingan.

Endi auditorlik tashkiloti ustav kapitalining ushbu ulushi amaldagi auditorlik malaka sertifikatini bo'lgan, shuningdek, ushbu auditorlik tashkilotining auditori (asosiy ish joyidagi yoki o'rindoshlik asosidagi shtatdagi xodimi) bo'lgan ta'sischi (ta'sischi) tegishli bo'lishi lozim. Shunday qilib, auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida 51 foizi ushbu auditorlik tashkilotining bir yoki bir necha shtatdagi auditorlarga tegishli bo'lishi lozim va auditor (auditorlar) faqat bitta auditorlik tashkilotida ta'sischi bo'lishi mumkin.

Yuqorida eslatib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 apreldagi 2007 yildagi PQ-615 sonli Qarori bilan tasdiqlangan auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomda shuningdek, quyidagilar ko'zda tutilgan:

- auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha talablar va shartlar;
- litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo'lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo'pol ravishda buzishga kiradigan qo'shimcha talablar;
- auditor malaka sertifikatining amal qilishini tugatish uchun asos bo'lib hisoblanadigan bir marta qo'pol ravishda buzishga kiradigan qo'shimcha talablar;
- auditorlik tashkilotlariga qo'yiladigan qo'shimcha litsenziya talablari va shartlari;

Mamlakatimizning bugungi kundagi auditorlik faoliyatida shuni alohida takidlash lozimki, auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi nizomga muvofiq auditorlik tashkilotlari amaliy rotatsiyaga kirishlari ya'ni ular bitta xo'jalik yurituvchi sub'ektning auditorlik tekshiruvini uch yildan ortiq ketma-ket o'tkazishlari mumkin emas. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun shtatdagi auditorlarni yoki auditorlik tashkiloti bilan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma tuzgan auditorlarni jalb qiladilar

Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvi buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida

moliyaviy hisobot hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risida noto'g'ri yakundan iborat bo'lgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida ularga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganlik yoki lozim darajada o'tkazmaganlik oqibatida xo'jalik yurituvchi sub'ektga va (yoki) auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga etkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart. Bundan ko'rinadiki auditorlik tashkiloti va auditorlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvlari o'tkazish davrida moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi sifatli auditorlik tekshirishlarni amalga oshirish bilan belgilanadi.

Yuqoridagi takliflarni umulashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bizning Respublikamizda auditorlik va unga yondosh bo'lgan professional xizmatlarga talab va qiziqishlar oshib boradi, bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasini kelajakda xalqaro auditorlik xizmatlari bozorida milliy auditorlik faoliyatimiz muvofaqiyatini ishonchliligini ta'minlaydi.

XULOSA

Ushbu kurs ishimizda keltirilgan mavzudagi jummalarni tahlil qilish orqali shuni takidlashimiz mumkinki moliyaviy hisobot auditini to'g'ri tashkil qilish va ulardagi ma'lumotlarni haqqoniyligini tekshirish O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri bayon qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz xo'jalik sub'ektlarida moliyaviy hisobot auditini to'g'ri tashkil qilinishi va amaliy tahlil qilish natijasida ularning moliyaviy faoliyatini yanada mustaxkamlash chora tadbirlari kurs ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Auditning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda auditorlik tashkiloti yuqori sifatli professional xizmat ko'rsatishga erishishi uchun o'z faoliyatini shunday tashkil etishi kerak-ki, uning ish bajarish yoki xizmat ko'rsatishda qatnashayotgan xodimlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

halollik va haqqoniylik;
professional kompetentlik va zarur tajriba hamda malakaga egalik;
professional axloq normalariga rioya qilish va belgilangan standartlar (shu jumladan korxonadagi ham) talablarini bajarish;

o'z professional majburiyatlarini bajarish chog'ida xodimlarga ma'lum bo'lgan axborotlarni maxfiy (sir) tutish printsipiga rioya qilish va hokazo.

Mijoz-korxona rahbariyati shartnoma asosida professional xizmatlar ko'rsatayotgan auditorlar faoliyati ustidan joriy nazorat o'rnatishi va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatiga ta'sir etuvchi muammolar yuzaga kelganda ularga ma'lum qilishi mumkin.

Ta'kidlash, joizki odatda buyurtmachi auditorlik tashkilotiga murojat qilganida bitta emas, balki bir necha xizmatni olishni hohlaydi. Shuning uchun ayrim xizmat turlarini alohida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Bu holatlar albatta auditorlik faoliyatini vazifalarini bajarishda auditorlik tamoyillarini mustaxkamligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2002.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. «2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida». 2009 yil 13 fevral.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rsmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: «Adolat »,2008 y.-692 b.

5. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.
7. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son Qaroriga 2-ilova «Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida» Nizom.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qaroriga ilova «Auditorlik tashkilotlari to'g'risida» Nizom.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qarori - «Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida».
10. Audit, Darslik. 1 jild. M.M.Tulojodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmadjonov va boshqalar. O'z.R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: NORMA/ 2008/-320 b.
11. Audit, Darslik. 11 jild. M.M.Tulojodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmadjonov va boshqalar. O'z.R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: NORMA/ 2008/-320 b.
12. Bichkova S.M. Audit: situatsii, primeri, testi. - M.: Finansi i statistika, 1999.
13. Vasilevich I.P. Sbornik zadach po auditu. -M.: «INFRA-M», 1999.
14. Do'smurotov R.D. Audit asoslari.-T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-612 s.
15. Do'smurotov R.D. Audit. O'quv qo'llanma (I qism). / R.D. Do'smurotov, Sh. Fayziyev. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 178 s
16. Do'smurotov R.D. Audit. O'quv qo'llanma. (II qism)./ R.D. Do'smurotov, Sh. Fayziyev. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 256 s
17. Arens A., Lobbek D.J. Audit. Per. s angl. pod. red. prof. Ya.V. Sokolova, - M.: Finansi i statistika, 1995.
18. -Moliya. 2006. – 200 s.
19. Fayziev Sh. «Audit» fanidan kurs ishi yozish, rasmiylashtirish hamda himoya

qilish: Uslubiy qo'llanma. – T.: TMI. 2006. – 26 b. .

20.Fayziev Sh., Do'stmuratov R. Investitsiyalar auditi va baholash: O'quv qo'llanma. – T.: TMI. 2006. – 110 b. .

21.Mamatov Z., Narbekov D. Audit asoslari. – T.: TMI. 2007. – 140 b.

22.Auditning xalqaro standartlarini kodifikatsiyalashtirish. – T., 2006. – 206 b.

23.Spravochnik po vneshnemu i vnutrennemu auditu xozyaystvuyushchix sub'ektov na territorii Respubliki Uzbekistan. – T.: Norma. 2007. – 84 s.

24.Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Xalqaro audit tizimi. – T.: Iqtisod-moliya. 2007. – 156 b.

25.Do'stmuratov R.D. Audit asoslari. – T.: O'zbekistan milliy entsiklopediyasi. 2003. – 612 b.

26.Mamatov Z.T., Norbekov D.E., Shakarov K.A. Audit. – T.: Toshkent Islom universiteti nashriyoti. 2002. – 280 b.

27.Hamdamov K. Audit iqtisodi. – T.: TMI. 2005. – 251 b.

Internet saytlari

28.<http://www.iasc.org.uk>

29.<http://www.aicpa.org/index.htm>

30.<http://www. uza.uz>

31.<http://www.uzbekistan.uz>

32.<http://www.accountingweb.com>

33.<http://www. ziyonet. uz>

34.<http://www. mf. uz>

35.<http://www. tfi. uz>

36.<http://www.lex. uz>